

**BOLALAR QO`SHIQLARI ORQALI O`QUVCHILARDA
VATANPARVARLIK, INSONPARVARLIK VA MEHNATSEVARLIK
TUYG`ULARINI SHAKLLANTIRISH**

Umurzoqova Laylo Baxtiyor qizi

Navoiy Davlat Pedagogika institute “Musika ta’limi” kafedrası o’qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7895607>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar qo’shiqlari orqali o’quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik tuyg’ularini tarbiyalashda va ularda milliy iftixor tuyg’usini shakllantirishda o’quvchilarga vatanparvarlik g’oyasini shakllantirishga yordam beruvchi allomalarimiz hayoti va ijodi haqidagi bilimlarni berish o’quvchilar tomonidan o’zlashtirilgan mutafakkirlar haqidagi bilimlarni chuqurlashtirib borish, o’quvchilarda o’tmish qadriyatlar haqidagi bilimlarni o’rganishga bo’lgan ehtiyoj va qiziqishni yuzaga keltirish, o’quvchilarda o’tmish meros va qadriyatlarga nisbatan chuqur hurmatni uyg’otish, mustaqil O’zbekistonda insonparvarlik g’oyasini shakllantirish bo’yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mazmunidagi ishlar bilan o’quvchilarni tanishtirish, o’quvchilarda o’tmish merosimizdan g’urur tuyg’usini qaror toptirish, o’quvchilarni har qanday ko’rinishdagi odobsizliklarga qarshi kurashga rag’batlantirish, o’quvchilarda milliy iftixor tuyg’usini shakllantirish uchun shart - sharoit yaratish haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: qo’shiq, madaniyat, ma’rifat, qadriyat, musiqa.

Musiqa - eng go’zal, eng olijanob orzu va hayotiy g’oya baxsh etadi. Musiqa jamiyat hayotining bir muhim qismi bo’lib, u inson ruhiyatiga ta’sir ko’rsatish imkoniyatiga ega kishilarning ichki dunyosini aks ettirish bilan ularga bir-birlarini yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi, olijanob kechinmalarni vujudga keltirish bilan odamlarga alohida quvonch baxsh etadi va bitta maqsadga da’vat etadi .

Musiqa tilining o’ziga xos xususiyatlarini tasavvur etish ancha murakkab davom etadigan jarayondir. Bu vazifa o’quvchilarning musiqani ongli idrok etishlari, elementlarni tahlil qilishlari va ularning musiqa va ularning musiqa haqidagi bilimlarini boyitib borish asosidagina muvaffaqiyatli bajarish mumkin. Musiqani astoydil tinglab, uning haqida fikr yuritsada va uni tushunsa, musiqaning estetik ta’limi va tarbiyaviy funksiyasi amalga oshadi. Musiqani chinakam hissiyot bilan idrok etish musiqaga yondoshishning eng faol usullaridan biridir . O’quvchilarning ichki ruhiy dunyosini, hissiyot tafakkurini faollashtirishning muhim samarali omilidir. Musiqani idrok etish va eshitib



tasavvur qilish talablari o'quvchilarga asarning mazmunini yoritishga yordam beradi .

O'quvchilarda musiqa bo'yicha ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishi ularning musiqa tarbiyasining amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega. Chunki kishi faoliyatining bitta sohadagi ijodiy qobiliyatini boshqa sohalaridagi qobiliyatlarning rivojlanishiga musiqaning jozibador dunyosini ochib berish orqali kishi shaxsini kamol toptiradi va uning ma'naviy hayotini boyitadi .

O'quvchilarda musiqa bo'yicha ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda ularga bevosita va ruhiy ta'sir ko'rsatilgan musiqa san'atiga doir darslar asosiy omil hisoblanadi .

Musiqa san'atining san'at sifatida eng muhim hissiyoti shuki, u ijodiy kuchni qo'zgatish ta'sirchan vositalarga ega .

Ijro etilgan musiqa asarlari estetik munosabatlarni vujudga keltirishga xizmat qiladi, shuningdek, musiqa o'zining alohida usullari bilan chuqur fikr va hissiyotni davrning harakterini aks ettirishi mumkin. O'quvchilarni tarbiyalash ishini shunday olib borish kerakki, kishi ijtimoiy hayotining undagi g'oyalari, intilish va fikrlarining ifodasi sifatida namoyon bo'lsin . Shundagina musiqa, undan muntazam va keng foydalanish yosh avlodni g'oyaviy tarbiyalashning samarali omili bo'ladi.

Musiqa tarbiyasining vazifasi yoshlarni har tomonlama yetuk inson qilib yetishtirishdir .

Yoshlarga Ona Vatanga muhabbat, millat va elatlarga chuqur hurmat, baynalminallik, insonparvarlik ruhida tarbiyalashda san'at va adabiyotning o'rni katta va beqiyosdir.

Insonning ichki dunyosiga , axloqiy–estetik kechinmalar uyg'ota olish estetik jihatdan shakllanishga musiqaning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilishi xilma-xil amaliy hamda didaktik usullarni muvaffaqiyatli, qulay bilim olishlari shart . Umuman olganda ta'lim maktablarida qo'shiqlar o'rgatish oldindan eshittirib so'ng aytirish qoidalariga asoslanadi .

Musiqa kishilar hayotini, ularning his-tuyg'ularini va orzu istaklarini o'ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining ichki hissiyotlariga faol ta'sir etadi. Shuning uchun ularning ma'naviy, g'oyaviy va axloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirib oliyanob fazilatlarini kamol toptirishda ta'sirchan vosita hisoblanadi.

Musiqa tarbiyasi bolalarga xos musiqa tinglash, qo'shiqlarni yodlash, musiqa bilan turli harakatlarni bajarish , cholg'u asboblarini chalish, musiqa va



musiqachilar to'g'risidagi kitoblarni o'qish, teatr, konsertlarga borish singari musiqaviy faoliyatning turli xil turlarini o'rganishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining quvnoq musiqalarini zavq-shavq bilan tinglashi, musiqa asboblarning qiziqib chalishi qo'shiq va raqslarini berilib, ijro etishi, ularda musiqaga qiziqishini tarbiyalash bo'yicha amalga oshiriladigan ishlarning zaminidir.

Musiqani faol ravishda tinglash bolalarda ijrochilik malakalarini shakllantiradi. Musiqa tinglagandan keyingi fikr almashuvlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib , o'qituvchi bolalar o'rtasida bir-birini aniqlash ruhini va o'zaro ishonchini vujudga keltiradi, hamda mustahkamlaydi . Musiqa o'qituvchisi umumiy ta'lim maktablarining har bir sinfida o'rgatish uchun qilinayotgan qo'shiq ashula va materiallarini puxta o'ylab chiqishi kerak . Repertuarga kiritilayotgan qo'shiqlar g'oyaviy badiiy qiymatga qarab tanlanmoq'i , o'quvchi bolalarga tushunarli va mavzu jihatdan xilma-xil bo'lmog'i lozim. Bolalarni o'ziga qo'shiq aytirish , ularda musiqaga moyillikning tarkib topishi amaliy va ta'sirchan vositadir .

O'quvchilarga o'zbek xalq qo'shiqlari qatorida rus, qozoq, ukrain, tojik va boshqa xalq qo'shiqlari ham o'rgatilib boriladi. Bu qo'shiqlarning hammasi bolalarni o'z Vataniga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalaydi. Qahramonlar bilan faxrlantiradi, bolalar o'z xalq qo'shiqlarini qadrlab o'rganadilar .

Bastakor musiqachi san'at arboblari hayoti va ijodlarini o'rganish turli mamlakatlar xalqlari musiqa asarlari bilan tanishishi bolalar uchun foydalidir. Musiqa to'g'risidagi kitoblar bolalarda musiqaviy didni tarbiyalaydi .

Estetik tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lgan musiqa tarbiyasi badiiy tarbiyaning yorqin namunasidir. O'quvchilar har bir musiqa asarini diqqat bilan e'tibor berib kuylashi va tinglashi ulardagi musiqiy tovushlar vositasida gavdalanitirilgan. Badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi hamda ularga to'g'ri badiiy baho berish zarur. Bunda musiqa san'atining mohiyatini, uning tur va jaranglarini o'quvchilarga tushuntirib berishga katta yordam beradi. Badiiy tarbiya, shu jumladan musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Maktabda musiqa o'qituvchisining eng asosiy vazifasi bolalarni musiqa san'atiga qiziqtirish, bolalarning musiqaviy iste'dodini rivojlantirishdan iboratdir. O'quvchilar faqat musiqa amaliyoti jarayonida, musiqa materiallari asosida va ta'lim uslubiga asoslangan holda musiqa savodini bilishlari lozim. Mana shu sabablarga ko'ra eng ommaviy, eng tushunarli ommaviy va chuqur



emosional ta'sir kuchiga ega bo'lgan xor ashulalari va katta bolalar maktabda bolalar musiqasi tarbiyasining asosi hisoblanadi.

O'quvchilar musiqa darsida qo'shiq o'rganishi yoki musiqa savodini egallash bilan cheklanib qolmasdan, gram plastinkaga yozish hamda o'qituvchi ijrosida musiqa asarlarini tinglaydilar.

Musiqa asarlarini chuqur egallash uchun musiqani eshitish malakasi va musiqa bilimi bo'lishi talab qilinadi. Bolalarga mo'ljallab eshittiriladigan musiqa, ularning tushunchasi va ichki dunyosiga yaqin bo'lishi lozim. O'quvchilar quvnoq va qayg'uli tantavor , ko'tarinki ruhdagi va hajviy musiqalarni juda qiziqib eshitadilar.

Musiqa asarlari yilma- yil forma va mazmun jihatdan murakkablashib boradi . Bolalar birinchi va ikkinchi sinfda asosan bolalar uchun yozilgan musiqa asarlarini eshitadilar va o'qituvchi yordamida ijro etadilar. Uchinchi sinfdan boshlab maktab dasturiga xalq qo'shiqlari , klassik bastakorlarning kichik asarlari va keng tarqalgan ommaviy qo'shiqlar kiritiladi. O'quvchilarning yoshi va qobiliyatini hisobga olgan holda eshutilishi lozim bo'lgan musiqa asarlarini tinglash mumkin.

O'quvchilarda musiqaga havas uyg'otish uchun ularning tanlanayotgan musiqa asarlarini sevishi katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun yaxshi ijro etilgan asarlar ularda chuqur taassurot qoldiradi, musiqa asariga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Ayniqsa sinfda o'quvchi yoki musiqaga havas qo'ygan yosh jirochi, ya'ni o'quvchilar tomonidan ijro etiladigan asarlar hayajon bilan qabul qilinadi. Musiqa darslari maxsus jihozlangan sinflarda o'tkazilishi yuqori natija beradi. Bunday sinflarda birinchi navbatda cholg'u asboblari pianino, rubob, doira, akkordion, afg'on rubobi, musiqa savodiga oid jadvallar, bastakorlarning portretlari, nota yo'li chizilgan doska, magnitafon, proigrevatil plastinkalar... bo'lishi kerak. Bunday sinf bo'lmaganda darslar oddiy sinflarga o'tkaziladi.

O'zbekiston mustaqil davlatga erishgan bir sharoitda ma'naviy va axloqiy tarbiya qator omillar ta'sirida amalga oshiriladi. Bu eng, avvalo, shaxsni umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllantirish maqsadida ish olib borishda ko'rinadi. Axloqiy sifat shaxsning barcha muhim xususiyatlarini yaxlit holga keltiradi. O'zbek xalqining moddiy va madaniy darajasining ko'tarilishi yangi axloqning kelajakdagi rivojlanishi va mustahkamlanishining sotsial bazasini kengaytiradi, shaxs ehtiyojlarini yangi darajasi va undan oqilona foydalanishni shakllantiradi. Axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsni axloqiy shakllantirishdir. Axloqiy tarbiyaning mazmuni avvalo o'quvchilarning amaliy faoliyatlarida, o'qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida



o'zaro ta'sir ko'rsatish usullari, xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirishlarida namoyon bo'ladi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni o'quv dasturlari va darsliklarga joylangan bo'lib, u o'quv jarayonida amalga oshiriladi. Masalan, xor darsida kuylash uchun mo'ljallangan qo'shiqlar repertuaridan ona Vatanga, boy tabiatimizga, xalqimiz mehnati va hayoti bilan bog'langan turli bayramlarga, axloq-odobga keng o'rin berildi. Tanlangan qo'shiqlar xilma-xil janrda bo'lib, ular ko'proq milliy musiqamizdagi lirik qo'shiqlar, hazil-mutoyiba tarzidagi qo'shiqlar, bolalar xalq qo'shiqlari, bolalar o'yinlarini o'ynash uchun mos keladigan kuy-qo'shiqlar, marsh va vals kuylarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, dasturga qardosh va chet el kompozitorlari asarlari, chet el xalqlari qo'shiqlaridan namunalar ham kiritildi. Bu qo'shiqlarning g'oyaviy, axloqiy va estetik mazmunini o'quvchilarga yaxshiroq singdirish uchun mavzuga mos kirish, axloqiy suhbatlar, savol-javoblar kabi usullardan ijodiy foydalaniladi. Berilgan mavzularni oson o'zlashtirish uchun ifodali o'qish, mavzu asosida rasmlar chizish, ularni tahlil qilish, eski ro'znoma va oynomalardan mavzuga doir rasmlarni kesib yopishtirish kabi usullardan ham keng foydalanish tavsiya qilinadi. Axloqiy tarbiya yoshi va o'quvchining to'g'ri yo'nalish olishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadigan muhitni ham hisobga olganda, shaxsning butun hayotiy faoliyati jarayonida amalga oshiriladi. Axloqiy bilim berish bir qancha tarbiyaviy vazifalarni bajaradi:

Inson hayoti va madaniyatining axloqiy qadriyatlari to'g'risida keng tasavvur beradi. Axloqiy bilim asosan axloq to'g'risidagi suhbatlar, ma'ruzalar, mavzuli kechalar, turli kasb namoyondalari bilan uchrashuvlar, o'quvchilar konferensiyasi va boshqa vositalar bilan amalga oshiriladi.

O'zbek xalqi ta'lim-tarbiyaga oid boy merosga ega bo'lib, avvalo insonparvarlik, kamtarinlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat, do'stlik, birodarlik, poklik, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalab kelgan. Hozirda ma'naviy tarbiyani yoshlarda shakllantirish dolzarb vazifadir. O'zbek milliy qo'shiqlarini maromiga yetkazib kuylash, tinglovchilarning yuragiga ta'sir qildirish - bir san'at, u san'atdan bahra ola bilish ham katta iste'dod bo'lib qoldi. Shuning uchun keksa san'at ustalarimizni tinglay olish, ularni ardoqlash, e'zozlash, oqibatli bo'lishni yosh avlodga o'rgatish, o'qituvchilarga katta vazifa yuklaydi. O'qituvchi-ustozning mahorati o'z o'quvchisini har bir ishni bajarishga majbur etishida emas, balki uni bu ishni o'z hoxish - irodasi bilan, tushunib quvonch bilan bajarishga rag'batlantirishdadir.



Ma'naviy tarbiyaning bir nechta jihatlari mavjud. Shuning bir qirrasiga ya'ni musiqiy ta'sir orqali yuksak insoniy his-tuyg'ularni shakllantirish masalalariga ozgina to'xtalamiz. Asrlar osha yetib kelgan xalq hayotini ko'rsatuvchi qo'shiq va kuylar juda ko'p. Ular his-hayajon uyg'otuvchi, mazmuni jihatidan esda qoluvchi ta'sirchan kuchga egadir. Ularning har bir inson uchun qimmatli ahamiyatga ega ekanligini allomalarimiz uqtirib kelganlar. (Yo alhazar, ey musiqa olami, yaxshiyam sen borsan, agar sen bo'lmaganingda insonlarning ahvoli nima kechardi, - deb xitob qilgan edi, -Al Farobiy)

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qish yoshiga yetgan va ta'lim olishga qobiliyati bo'lgan bolalarni o'z bag'riga oladi. Bolalar maktabgacha bo'lgan davrda asosan oila va bog'chalarda tarbiyalanadilar. Bunda, asosan oilaviy muhitning ta'siri katta bo'ladi. Har bir ota-ona o'z farzandlariga o'zlarining hayotda tutgan yo'llari, turmush tarzi, ijtimoiy va siyosiy qarashlarini singdirib borishga harakat qiladilar. Bu munosabat bolalar ongiga mustaqil mustahkamlanib boradi. Vaholanki, oila boshliqlarining o'zlari turli millat, din, falsafiy qarashlarga mansub kishilardan iboratdir. O'rta ta'lim maktablarining asosiy vazifalari oilada turlicha tarbiyalanib kelganlarni to'g'ri yo'lga solishdan, ularga o'zaro ijtimoiy hamkorlik ruhini singdirib borishdan iboratdir.

Ijtimoiy hamkorlik falsafiy tushuncha bo'lib, xilma-xil fikr va qarashlarga ega shaxs va guruhlarining umumiy maqsad yo'lidagi hamjihatligini ta'minlaydi. Turlicha qarashga ega bo'lgan o'quvchilarning yangi maqsadga ongli ravishda birlashishlari yurtimizning tinchligi va elimizning totuvligini, jamiyatimizning barqaror taraqqiyotini kafolatlaydi va bu totuvlikdan ularning har biri manfaatdor bo'ladi. Yosh avlodga ziyo tarqatishdek mas'uliyatli vazifani amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan har bir o'qituvchi, qaysi fandan dars berishidan qat'iy nazar bu yagona maqsadni amalga oshirishda mas'uldirlar.

Musiqa madaniyati o'qituvchisining o'rni o'quvchilarni yangi maqsadga birlashtirishda va ijtimoiy hamkorlik samaralarini ularning ongiga singdirib borishda alohida ahamiyatlidir. Hech qanday fan o'quvchilar jamoasini musiqa darsi singari birlashtira olmaydi. Zero, musiqa hamjihatlikni talab qiladi. Xususan, birgalikda qo'shiq kuylash barcha o'quvchilarning diqqat - e'tiborini bir nuqtaga jamlash, birgalikda nafas olish, ijroni bir kishiday boshlash, uni davom ettirish va birgalikda tugatishdek murakkab mexanizmga bo'ysunishni talab qiladi.

Nafasni me'yorida olmaslik musiqiy jumlar o'rtasidagi uzilishga sabab bo'ladi. Tovushni sezilarli darajada sekinlatib yoki tezlatib kuylash ritmik ansamblning buzilishiga sabab bo'ladi. Ovozni birday qattqlikda ijro etmasligi



dinamik tushlaridagi nomutanosiblikka olib keladi. O'zina e'tiborsizlik ijrodagi tembrning buzilishiga sabab bo'ladi. Bu kamchiliklarning birontasiga yo'l qo'yilgan holatda asardagi soz buziladi. Ta'kidlash lozimki, asarni jamoa ijrochiligining barcha talablariga javob bera oladigan darajada kuylashning o'ziga o'quvchilarga hamkorlik tuyg'ularini singdirishni ta'minlay olmaydi. O'qituvchi asarning g'oyaviy mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning fikrlarini ijtimoiy hamkorlikka yo'naltira olishi ham lozim. Bu hamkorlikning quyidagi shartlariga amal qilishni talab etadi. Birinchidan, ta'limning eng ustuvor maqsad va vazifalarini o'zida mujassam etadigan ilg'or g'oyalar milliy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi fanga aylanadi. Ikkinchidan, jamiyatdagi har bir ijtimoiy toifa yoki guruh o'zining dasturi maqsadlari va amaliy ta'oliyatini ana shu g'oyalar bilan uyg'unlashtirishi milliy taraqqiyotning zaruriyatiga aylanadi. Uchinchidan, har bir shaxs, ijtimoiy maqsad, dunyoqarashi, e'tiqodidan qat'iy nazar jamiyatning ustuvor maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan milliy g'oyalarning amalga oshirilishi uchun o'zini mas'ul deb bilishi bu jarayonning asosiy tamoyili hisoblanadi.

Xulosa shuki, ijtimoiy hamkorlikning samarali olib borilishida o'quvchilar ongiga barcha muqaddas tuyg'ularni - ona Vatanga muhabbat, milliy musiqiy qadriyatlarimizga sadoqat, millatlar aro do'stlikka munosabat, halol mehnatga va ma'lum musiqiy kasbni egallashga intilish, ota-ona, qarindosh-urug', muallim va sinfdoshlarga bo'lgan hurmat hislarini singdirish imkoniyatini beradi. Ularning hayotdagi o'z o'rnini belgilab olishi va o'quvchilik, farzandlik hamda umuman insoniylik burchlarini halol o'tashga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoev, "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent, O'zbekiston nashriyot- matbaa ijodiy uyi 2016 y.
2. Sh.Mirziyoev, "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak", Toshkent, O'zbekiston nashriyot- matbaa ijodiy uyi 2017 y.
3. Sh.Mirziyoev, "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash- yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi", Toshkent, O'zbekiston nashriyot- matbaa ijodiy uyi 2017 y.





4. M.Bekmurodov, Q.Quronboev, L.Tangriev “Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari” nomli risola, Toshkent, G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa ijodiy uyi 2017 y
5. Umurzakov, B. N., & Umurzakova, L. B. (2022). THE USE OF GAMING TECHNOLOGIES IN THE MUSICAL EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(03), 13-16.
6. www.ziynet.uz
7. www.lex.uz

